

XORIJY TILLARNI YANADA TEZ O'RGANISHNI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIV USULLAR

Dilbar Meliboyeva Nazarovna

Samarqand viloyati Bulung'ur tumani 34-umumta'lim maktabi ingliz tili o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7316454>

Anotatsiya. Ushbu maqola umumta'lim maktablari o'quvchilairga o'rganayotgan xorijiy tilni qanday qilib tez va oson rivojlantirishni o'rgatishning asosiy usullari haqida ma'lumot beradi.

Kalit so'zlar: talaffuz, yangi ma'lumot olish, yozish, guruhga qo'shilish, taqlid, IPA, sezilarli yaxshilanish, qo'shiq eshitish, kino ko'rish, mobil ilovalar.

ОСНОВНЫЕ МЕТОДЫ РАЗВИТИЯ ИЗУЧЕНИЯ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ БЫСТРЕЕ

Аннотация. В данной статье представлена информация об основных методах обучения учащихся средней школы тому, как быстро и легко освоить изучаемый ими иностранный язык.

Ключевые слова: произношение, изучение новой информации, письмо, вхождение в группу, подражание, МФА, значительное улучшение, прослушивание музыки, просмотр фильмов, мобильные приложения.

THE MAIN METHODS OF DEVELOPING THE LEARNING OF FOREIGN LANGUAGES FASTER

Abstract. This article provides information on the main methods of teaching secondary school students how to quickly and easily develop the foreign language they are learning.

Keywords: pronunciation, learning new information, writing, joining a group, imitation, IPA, significant improvement, listening to music, watching movies, mobile applications.

Darhaqiqat, o'qituvchi yoki murabbiy boshqalarga biron nimani chinakamiga o'rgatishi uchun, avvalo, o'zi o'qib-o'rganmog'i, ta'lim- tarbiya berishda ibratli bo'lmgan, o'qitish-o'rgatishda sabrli bo'lmgan kerak. Zamonaviy hayot tarzi insonlardan har qanday yangi narsani tez o'rganish va yangi ko'nikmalarni o'zlashtirish qobiliyatini talab qilmoqda. Hayotning eng muhim sohalaridagi natijalar, umuman hayotdagi inson erishgan yutuqlar, o'z-o'zini anglash va shunga o'xshash narsalarga bog'liq. Bu qobiliyat odamda boshqa odamlardan ustunlikni va yangi marralarni zabit etish imkonini beradi. Shunday ekan mifik o'quvchilari orasida ham zukkoligi, ilmga chanqoqligi, boshqa o'quvchilardan talabchanligi bilan ajralib turadigan o'quvchilarning ham borligi hech qaysi o'qituvchi uchun sir emas. Bu kabi o'quvchilar hamma fanni yanada tezroq o'rganishni xohlashadi, qolgan o'quvchilardan ko'ra vazifalarni tez va ortig'i bilan bajarishadi. Agar e'tibor beradigan bo'lsak, ular o'qituvchilardan yanada ko'proq maslahatlar so'rashadi. Agar o'ziga kerakli ma'lumotni olishmasa zerika boshlaydi.

Til o'rganayotgan o'quvchilar tilni o'rganishda yangi va oson yo'llarini axtarishadi. Ularga quyidagilarni ma'lumot qilib berish mumkin.

Eng avvalo, til o'rganuvchilar o'rganish uchun kuniga vaqt topa olishlari va kundalik rejimidagi odatga aylantirishlari kerak. Boshqa so'z bilan aytganda, til o'rganishni xuddi ovqatni vaqtida yegandaek yoki tishlarini har kuni yuvishganidek odat qilib olishlari kerak. Shundan keyingina ular e'tiborlarini quyidagilarga qaratishlari mumkin.

1.Pronunciation every day, ya’ni har kuni talaffuz qilish kerak. Bu jarayon ularga juda yordam beradi, chunki boshqalarga gapiroyotganimiz aniq va tushunarli bo’lishi shart. Ba’zi o’rganuvchilarda grammatika va so’z boyligi o’ta yuqori bo’ladi lekin muloqot qilolmaydilar. Sababi so’zlarni ishlatib talaffuz qilib ko’rismagan va boshqalar ularni tushuna olmaydi. Juda ko’p so’z boyligi bo’lsayu yoki graammatik jihatdan o’ta aqli bo’lsayu uni ishlatib insonlarga ko’rsatib bera olmasa bu juda achingly holat. Bu narsa asosan o’quvchilarning o’zlariga bog’liq. Agar uni o’qituvchisi imtihonga tayyorlayotgan bo’lsa, unga faqat qoidalar va ishlatilish tartiblarini o’rgatib qo’yishi mumkin, lekin o’qitib yoki gapirtirib ko’rish uchun vaqt ajratmasligi mumkin. Real hayotda esa muloqot uchun aniq va tushunarli talaffuz qilish undanda muhim.

Buning uchun esa tinimsiz mehnat va mashqlar orqali erishish mumkin.

Talaffuz qilishni esa quyidagilar yordamida o’rgansa bo’ladi.

a) IPA- Xalqaro fonetika Alifbosi. Bunda alifbodagi unli va undosh harflarning qay tartibda o’qilishi o’rganiladi. Unlilar ochiq va yopiq bo’g’inda va ikkita yoki uchta unli yonmayon kelsa qanday talaffuz qilinadi, undoshlarning so’zning har joyida kelganda qanday o’qilishi, qolaversa ba’zi undoshlarning talaffuz qilinmaydigan holatlarini fonetika orqali o’rganamiz. Fonetikani esa yoddan bilih kerak. Masalan, book so’zidagi ikkita o harflari u tovushini, school so’zidagi ch harf birikmalari k tovushini beradi, bularni esa yoddan bilmagan o’quvchi fonetkani bilmaydi deganidir.

b) Imitation lessons- taqlid darslari. Bunday darslar hozirgi kunda internetda juda ham ko’p tarqalgan. Ularni ko’rib bemalol talaffuzni o’rganishlari mumkin.

c) Read out loud- ovozni baland qilib o’qish. Agar o’quvchi kuniga 5-10 daqiqa o’zi xohlagan mavzudagi ma’lumotni baland ovozda o’qisa ham talaffuzda ijobjiy o’zgarish kuzatiladi. Yoki bo’lmasa oynaga qarab baland ovozda gapirish ham kerak bo’ladi. Yoki o’zini baland ovozda o’qiganini diktafonga yozib olib eshitish ham taxshi samara beradi. Yozib olingan ovozni qayta tinglaganimizda qanday xatolarga yo’l qo’yganimizni bilib olamiz.

1. Absorb- yangi ma’lumot olish orqali. Bunga quyidagilarni qo’llash maqsadga muvofiq bo’ladi.
 - a) Qo’shiqlar yoki yangiliklar eshitish- listening songs or daily news
 - b) Kitob yoki internetdagи bloglardan ma’lumot topib o’qish- finding information from the books or Internet blogs and read them
 - c) Xorijiy kino yoki dasturlarini ko’rish- watching foreign movies or programmes

Faqat bularni bajarishda haftaning har qaysi kuniga beliglab olish kerak. Masalan, dushanbada qo’shiq yoki yangiliklar eshitilsa, chorshanbada kitob yoki internetdan ma’lumot o’qishni bajarish mumkin. Hozirgi kunda kitoblarning ham elektron ham audiolari chiqarilayapti. Avval o’zimiz o’qib ko’rib keyin audiosini tinglashimiz yoki audiovisual tinglab birgalikda o’qib ketidhimiz mumkin.

2. Writing-Yozish. Buning muhim tomoni o’quvchining lug’at boyligiga yana bitta yangi so’zning qoshilib, miyasiga “ quyulib” qolishiga yordam beradi. Eshitgan, ko’rgan, o’qigan har qanday so’z yoki so’z birikmasini yozib olish, uni yodlab qo’llab borish kerak. So’zlarni yodlab olib biron marta ham foydalanmasa, ishlatmasa so’zlar yoddan ko’tatiladi. Yozib yodlagan so’zlardan biror nima yozish kerakda uni bir necha kun chetga olib qo’yish kerak. Ikki-uch kundan keyin uni olib yana qaytarish kerak. Takrorlash o’rganishning asosi hisoblanadi. Keyingi takrorlashlarda so’zlarning sinonimlarini topib o’rganish yanada foydalidir.

3. Joining to discussion groups -baxs-munozarali guruhlarga qo'shilish. O'rganuvchi real hayotdagi yoki internet chatlariga qo'shib yangi-yangi g'oya va fikrlar, ma'lumotlar oladi va o'zi ham o'rganganlarini hayotda qo'llay boshlaydi. Gapirib fikr almashish eng yaxshi usul, qolaversa tilni tez o'rganishga turtki bo'ladi. Guruhlarda yo'qtirgan yoki qiziqtirgan mavzularda munozara qilish mumkin. Har qaysi a'zo o'zini fikrini bildiradi va bu esa yangi g'oyalarni o'rgatadi. Yuqoridagilarga qo'shimcha qilib yana hozirgi kunda keng tarqalgan mobil ilovalardan ham foydalanish mumkin. Bunday ilovalar soni kundan-kunga ortib bormoqda. Bularning avzalliklari qayerda bo'lgan taqdirimizda ham o'rganayotgan tilimiz haqida ma'lumotni telefonimizdagi ilovadan olish imkonimiz bor. Bunday ilovalar nomi quyidagicha:

a) Duolingo, b) Hello English, c) Hello talk, d) Cake, e) Lingoda va boshqalar.

Xulosa qilib aytganda, yuqoridagilardan foydalanib, hech ikkilanmasdan, hech qanday shubhalarsiz qisqa muddat ichida tilni o'rganish mumkin , lekin buning uchun ozgina vaqt va istak kifoya qiladi.

REFERENCES

1. Teachers' book Grade 11 Tashkent- 2015 y
2. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. R. Ishmuhamedov, M. Yuldashev Tashkent- 2017y
3. Ingliz tili grammatikasi K. N.Kachalova, E.E. Izrailovich Turkistan-2006
4. Oxford online. Com mmm.english
5. ESL English kids